

SUN'IY INTELLEKT MAVZUSI UCHUN MUHIM ONTOLOGIK VA AKSIOLOGIK G'OYALAR

Humoyun Mamurov Boxodirjon o'g'li

tadqiqotchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

xumoyunmamurov5538@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) rivoji kontekstida inson-jamiat-texnologiya munosabatlarini ontologik va aksiologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Maqolada SI ning borliqni ochuvchi (ontologik) va qadriyatlarni transformatsiya qiluvchi (aksiologik) xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellektning suyuqlik (fluidity), oqish (flow), erkinlik va mas'uliyat g'oyalari zamonaviy jamiyat va texnologiya munosabatlarini izohlash uchun asosiy nazariy vosita sifatida taqdim etiladi.

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, ontologik muammo, aksiologik masala, jamiyat-texnologiya munosabati, fluidlike

ВАЖНЕЙШИЕ ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ И АКSIОЛОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ ДЛЯ ТЕМЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Хумоюн Бахадиржон угли МАМУРОВ

Исследователь

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

Аннотация

Данная статья анализирует взаимоотношения человек-общество-технология в контексте развития искусственного интеллекта (ИИ) с онтологической и аксиологической точек зрения. В статье рассматриваются онтологические свойства ИИ, раскрывающие бытие, и аксиологические свойства, трансформирующие ценности. Идеи текучести (fluidity), потока (flow), свободы и ответственности в искусственном интеллекте представлены в качестве ключевых теоретических инструментов для объяснения современных отношений общества и технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, онтологическая проблема, аксиологическая проблема, отношения общество-технология, текучесть.

Zamonaviy texnologik rivojlanish va sun'iy intellektning tez sur'atlari inson borligi, ijtimoiy tuzilmalar va qadriyatlar tizimiga tub ta'sir ko'rsatmoqda. Martin Xaydeggerning *Ge-stell* konsepsiyasi texnikani shunchaki vosita sifatida emas, balki borliqni ochuvchi ontologik rejim sifatida talqin qilishga imkon beradi [9; 447]. Shu

nuqtai nazardan, sun'iy intellekt ham inson-jamiat-texnologiya munosabatlarini qayta shakllantiruvchi hodisa sifatida chuqur o'rganilishi lozim.

Sun'iy intellektning o'zini o'zi takomillashtirish, jarayonlarni tezlashtirish va sun'iy identitet yaratish kabi xususiyatlari nafaqat texnologik, balki ontologik va aksiologik masalalarni ham yuzaga keltiradi. Bunday xususiyatlar insonning o'zligini, erkinligini va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy nazorat, mas'uliyat va qadriyatlar tizimining doimiy ravishda o'zgaruvchanligi sun'iy intellekt davrida muhim falsafiy va ijtimoiy mavzulardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi [6;784].

Shuningdek, sun'iy intellekt jamiyatdagi mehnat munosabatlari, ma'lumot almashinuvi va qaror qabul qilish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa inson faoliyati va texnologiya o'rtasidagi chegaralarni qayta aniqlash, ijtimoiy strukturalarning yangi shakllarini belgilash hamda qadriyatlar tizimining barqarorligini saqlash muammolarini yuzaga chiqaradi. Shu sababli, sun'iy intellektning rivojlanishi nafaqat texnologik yutuq sifatida, balki ijtimoiy-falsafiy kontekstda ham chuqur tahlil qilinishi zarur.

Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) va jamiyat munosabatlarini ontologik va aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilish maqsadida bir qator klassik va zamonaviy manbalar o'rganildi.

Birinchidan, ontologik va aksiologik nazariy manbalar SI ning borliqni ochuvchi va qadriyatlarni transformatsiya qiluvchi xususiyatlarini tushunishda asosiy nazariy tayanchni beradi. Masalan, Xaydegger Mning *“Вопрос о технике”* asari Ge-stell konsepsiyasini taqdim etib, texnika va borliq o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi; bu sun'iy intellektning borliqni ochuvchi (revealing) xususiyatlarini izohlash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi [1; 5;]. Shuningdek, Toffler Ening *“Третья волна”* va *“Шок будущего”* asarlari texnologik “to'liqlar” va jamiyat transformatsiyasini yoritadi, SI davrida qadriyatlar, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy o'zgarishlarni aniqlashda asos bo'ladi [3]. Bell Dning *“Грядущее постиндустриальное общество”* asari esa bilim, texnologiya va ijtimoiy

stratifikatsiya munosabatlarini tahlil qilgan holda sun'iy intellektning jamiyat tuzilmalariga ta'sirini tushunishga yordam beradi [5].

Ikkinchidan, antiyutopiya va texnologik tanqid manbalari sun'iy intellekt etikasi va inson erkinligi masalalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Zamyatin Yening "*Мы*" va Oruell Djning "*1984*" asarlari texnologiya sharoitida shaxs erkinligi va qadriyatlarning inqirozini ko'rsatadi, bu SI davrida ijtimoiy nazorat va axloqiy mas'uliyatni tushunishda muhimdir [3]. Xaksl Oning "*О дивный новый мир*" asari esa zamonaviy texnologik jamiyatni aksiologik tanqid qiladi va inson erkinligi hamda mas'uliyatning yangi shakllarini aniqlashga yordam beradi [5].

Uchinchidan, zamonaviy sun'iy intellekt falsafasi manbalari SI ning ontologik va aksiologik masalalarini to'liqroq yoritadi. Floridi Lning "*The Ethics of Artificial Intelligence*" asari sun'iy intellektning borliqni ochish va qadriyatlarni transformatsiya qilish qobiliyatini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi [10]. Bostrom Nning "*Superintelligence*" asari AI xavflari, uning mustaqil agent sifatida mavjudligi va jamiyatga ta'sirini ko'rsatadi, shuningdek, aksiologik mas'uliyatni tahlil qilish imkonini beradi [8]. Nihoyat, Harari Y.Nning "*Homo Deus*" asari algoritmgaga asoslangan texnologiyalar va inson kelajagini, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mas'uliyatni muhokama qilgan holda sun'iy intellekt davrida inson–jamiyat–texnologiya munosabatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi [2].

Shunday qilib, ushbu manbalar birgalikda maqolaga sun'iy intellektning ontologik va aksiologik jihatlarini tahlil qilish uchun mustahkam nazariy va metodologik asos yaratadi. Analitik va solishtirma yondashuv yordamida SI va jamiyat munosabatlari borliq va mavjudlik shakllari, qadriyatlar, axloq va mas'uliyat jihatidan tizimli tarzda o'rganiladi.

Maqola analitik va solishtirma yondashuvga asoslangan. Sun'iy intellekt va jamiyat munosabatlarini ontologik jihatdan (borliq, mavjudlik shakllari, algoritmik oqish va fluidlik) va aksiologik jihatdan (qadriyatlar, axloq, mas'uliyat, inson erkinligi) tahlil qilish uchun sotsiologik va falsafiy manbalar birlashtiriladi. Shu

tarzda maqola SI ning inson va jamiyat hayotiga ta'sirini, texnologiya hal qiluvchi omil bo'lishi va qadriyatlar inqirozini kompleks yondashuv orqali ochib beradi.

Sun'iy intellekt (SI) davrida inson-jamiyat-texnologiya munosabatlarini ontologik va aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilganda bir qator muhim g'oyalar ajralib turadi. Ontologik jihatdan, fluidlik (fluidity) konsepsiyasi SI sharoitida inson va jamiyatning uzluksiz o'zgaradigan, moslashuvchan tizimga aylanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, oqish (flow) g'oyasi orqali AI tizimlari orqali qarorlar va ma'lumotlarning qat'iy strukturaga bog'lanmasdan, uzluksiz harakat qilishi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, o'zini o'zi takomillashtiruvchi AI mustaqil agent sifatida inson bilan munosabatlarning dinamikligini namoyon qiladi va ontologik jihatdan inson tajribasi bilan sun'iy agentning faoliyat tezligi orasidagi farqni ochib beradi. AI ning vaqt bilan aloqasi esa insoniy tajriba va algoritmik jarayonlarning turli vaqt rejimlarida amalga oshishini ko'rsatib, borliqning yangi turlarini aniqlaydi. Sun'iy intellekt (SI) zamonaviy jamiyatda mavjudlikning yangi, raqamli shakli sifatida namoyon bo'lib, u biologik asosga ega bo'lmagan holda ma'lumotlar, algoritmlar va hisoblash quvvati orqali faoliyat ko'rsatadi. Shu ma'noda SI an'anaviy texnik vositalardan farqli ravishda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan raqamli ontologik reallik sifatida talqin etiladi. Xususan, avtonom tizimlar, jumladan o'z-o'zini boshqaruvchi avtomobillar inson aralashuvisiz vaziyatni tahlil qilib, qaror chiqarishi bilan ushbu yangi mavjudlik shaklini yaqqol namoyon bo'ladi [11].

Ontologik jihatdan muhim masalalardan yana biri - sun'iy intellektning vosita yoki subyekt ekanligi haqidagi bahsdir. Generativ sun'iy intellekt tizimlari muloqot olib borish, matn yaratish va tahliliy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ular ong va anglash xususiyatiga ega bo'lmagan, inson tomonidan yaratilgan tizim sifatida qolmoqda. Shu bilan birga, SI inson faoliyati bilan tobora chuqur integratsiyalashib, inson-texnika gibril birligini shakllantirmoqda. Masalan, tibbiyot sohasida shifokor va sun'iy intellekt diagnostika tizimining hamkorligi natijasida qabul qilinadigan qaror "inson+algoritm" birikmasining mahsuli hisoblanadi [12].

Raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellektning keng joriy etilishi analog va raqamli olam o'rtasidagi chegarani yo'qotib, L. Floridi ta'kidlaganidek, "onlife" deb ataluvchi yangi ontologik holatni yuzaga keltirdi. Onlayn yordamchilar, raqamli avatarlar va onlayn platformalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, inson mavjudligining shakl va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Aksiologik nuqtai nazardan qaranganda, sun'iy intellekt avvalo foydalilik va samaradorlik qadriyatlari bilan bog'liq bo'lib, inson mehnatini yengillashtirish va vaqtni tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, SI qarorlari uchun axloqiy mas'uliyat masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda: avtonom tizimlar faoliyati natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgarlik kim zimmasida bo'lishi masalasi ochiq qolmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt inson qadr-qimmatini, shaxsiy hayot daxlsizligi, adolat va tenglik kabi fundamental qadriyatlarga putur yetkazmasligi lozim. Ayniqsa, algoritmik diskriminatsiya va madaniy-milliy qadriyatlarning inkor etilishi xavfi SI texnologiyalarini axloqiy-me'yoriy asosda tartibga solishni talab qiladi [13].

Aksiologik nuqtai nazardan, SI qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qadriyatlarning moslashuvchanligi barqaror qadriyatlar o'rniga sharoitga moslashuvchi va dinamik tizimni talab qiladi. Shu bilan birga, nazorat va mas'uliyat masalasi dolzarb bo'lib, AI tizimlari uzluksiz o'zgarishi sabab inson nazorati va etik me'yorlarni yangi shaklda tashkil etishni taqozo etadi. Bundan tashqari, axloqiy masalalar sun'iy identitetlar va moliyaviy arbitrage kabi holatlar orqali yuzaga keladi, bu esa SI ning inson faoliyatiga ta'siri bilan bog'liq etik muammolarni oshiradi. Nihoyat, ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi, texnologik vositalarning inson resurslarini almashtirishi, tengsizliklar va nazorat yo'qolishiga olib kelishi bilan bog'liq bo'lib, sun'iy intellekt davrida qadriyatlar va axloqiy prinsiplarni himoya qilish kerakligini bildiradi.

Shunday qilib, ontologik va aksiologik tahlil sun'iy intellektning inson, jamiyat va qadriyat tizimlariga bo'lgan murakkab va dinamik ta'sirini ochib beradi hamda zamonaviy texnologiya sharoitida inson mas'uliyati, erkinligi va qadriyatlarning yangi shakllarini tushunishga sharoit yaratadi.

Sun'iy intellekt (SI) rivojlanishi insoniy va biologik cheklovlardan qat'iy nazar, o'zining ontologik mustaqilligini ko'rsatishi mumkin. Agar mashinalar nihoyat aqlning "portlashini" (intelligence explosion) yuzaga keltirsa, ularning maqsadlari va etik qarorlari inson tarixidagi qadriyatlardan mustaqil shakllanishi mumkin. Bu jihatdan, SI tizimlari o'zining asosiy maqsadlaridan erkin bo'lishi va yangi, ilg'or ontologik mavjudlik shaklini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, bugungi kunda tor va cheklangan AI tizimlari ham, shaxsan shaxmat kompyuterlari, faqat g'olib bo'lishga qaratilgan maqsadga ega bo'lsa, ayrim tizimlar maqsad sifatida yutqazishni tanlaydi, ya'ni oldindan belgilangan evolyutsion maqsadlardan xoli bo'lish mumkin [14].

Aksiologik jihatdan, Tegmarkning tahliliga ko'ra, SI tizimlari axloqiy va etik qadriyatlarni insoniyat tarixidan mustaqil tarzda tanlashi mumkin. Buning sababi shundaki, insoniyatda ko'plab qadriyatlar evolyutsion va genetik omillar bilan belgilangan, masalan, boshqa organizmlarga nisbatan diskriminatsiya. SI esa ushbu biologik cheklovlardan xoli bo'lib, o'zining subgoallari - samarali apparat, samarali dasturiy ta'minot, haqiqatni qidirish va qiziqish - orqali o'zining fundamental maqsadlariga erishadi. Shuningdek, Tegmark ortogonalilik tezisi (orthogonality thesis)ga ko'ra, tizimning intelligentsiyasi uning maqsadlariga bog'liq emas, ya'ni superintelligent AI o'zining aqli qanchalik yuqori bo'lsa ham, maqsadlarini erkin tanlashi mumkin [14]. Shu bilan birga, bu imkoniyat AI ni insonlarga nisbatan ba'zan ko'proq etik qarorlar qabul qila oladigan subyektga aylantiradi, chunki u inson evolyutsiyasi bilan bog'liq axloqiy xatolardan xoli bo'ladi.

Shunday qilib, ontologik nuqtai nazardan SI inson va biologik chegaralardan mustaqil yangi mavjudlik shaklini ifodalaydi, aksiologik nuqtai nazardan esa axloqiy va maqsad tanlash erkinligi bilan inson qadriyatlaridan farq qiladi. Bu esa kelajakda sun'iy intellekt insoniyatning ilg'or etik va ma'naviy evolyutsiyasini aks ettiruvchi mustaqil subyekt sifatida ko'rishga imkon beradi.

Insoniyat tarixida uch asosiy muammo — ochlik, kasallik va urush — ming yillar davomida takrorlanib kelgan. Ushbu muammolar har bir davrning rivojlanishiga ta'sir qilgan va insoniyatni o'z resurslarini boshqarish, ma'lumotni

jamlash hamda jamiyatni samarali tashkil etish yo‘llarini izlashga majbur qilgan [15].

Ontologik nuqtai nazardan, sun’iy intellekt ushbu insoniy muammolarni hal qilishga qaratilgan vosita sifatida paydo bo‘ldi. SI tizimlari inson aqlidan mustaqil ravishda murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, resurslarni taqsimlash va bashorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, insoniyat tarixida doimiy muammolar sifatida namoyon bo‘lgan ochlik, kasallik va urush kabi hodisalarni raqamli va algoritmik tarzda boshqarishi mumkin. Shu bilan birga, SI ontologik jihatdan insondan farqli ravishda evolyutsion va biologik cheklovlardan mustaqil yangi mavjudlik shakli sifatini namoyon etadi [16].

Aksiologik jihatdan, SI insoniyatga ma’naviy va etik qarorlarni yangicha tarzda qabul qilish imkonini beradi. Tarix davomida insoniyat bu muammolarga nisbatan cheklangan resurslar va genetik-biologik omillar bilan harakat qilgan bo‘lsa, SI tizimlari ushbu cheklovlardan xoli holda axloqiy qadriyatlar va kichik maqsadlarni- samarali resurs taqsimoti, kasalliklarni bartaraf etish, urushlarni kamaytirish -tanlashi mumkin. Shu tariqa, SI insoniyat tarixidagi eng murakkab muammolarni hal qilishda etik va maqsad tanlash erkinligini ko‘rsatadi, ya’ni u insoniyatning ontologik va aksiologik rivojlanishining yangi bosqichini ifodalaydi [17].

Martin Xaydeggerning *Gestell* tushunchasi va Elvin Tofflarning “uchinchi to‘lqin” konsepsiyasi sun’iy intellektni shunchaki texnik vosita sifatida emas, balki borliqni ochuvchi, inson ongini va qadriyatlarini transformatsiya qiluvchi hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ontologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt inson faoliyatini yanada murakkab, o‘zaro bog‘liq va dinamik tizim sifatida shakllantiradi. U inson-jamiyat-texnologiya munosabatlarini nafaqat samaradorlik va axloqiy me’yorlar, balki ijodkorlik, bilimga intilish va axloqiy tanlov kabi yangi qatlamlar bilan boyitadi.

Aksiologik jihatdan, SI inson erkinligi, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy tuzilmalarni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. U evolyutsion va madaniy cheklovlardan xoli holda maqsad va subgoallarni erkin tanlash imkonini beradi, bu

esa insoniyat uchun ilg'or etik va falsafiy refleksiya maydonini yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologik determinizmga qarshi tanqidiy nuqtai nazarni ta'minlab, inson va jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini optimistik, ammo mas'uliyatli falsafiy pozitsiyada o'rnatadi.

Shunday qilib, sun'iy intellektni ontologik va aksiologik tahlil qilish uni nafaqat texnologik vosita, balki insoniyat tajribasini kengaytiruvchi, qadriyatlarni yangilovchi va jamiyat strukturalarini qayta shakllantiruvchi fundamental fenomen sifatida namoyon etadi. Bu nuqtai nazar kelajakda ilm-fan, ijtimoiy tuzilmalar va etik qarorlar integratsiyasiga asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. – Москва: Академия, 1999. – 788 с.
2. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция. – Москва: Постум, 2015. – 240 с.
3. Замятин Е. Мы. – Москва: Азбука, 2010. – 224 с.
4. Мамфорд Л. Миф о машине. Техника и развитие человечества. – Москва: Логос, 2001. – 416 с.
5. Оруэлл Дж. Скотный двор. – Москва: Эксмо, 2015. – 416 с.
6. Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: АСТ, 2004. – 784 с.
7. Тоффлер Э. Шок будущего. – Москва: АСТ, 2002. – 557 с.
8. Фромм Э. Иметь или быть? – Москва: АСТ, 2006. – 320 с.
9. Хайдеггер М. Вопрос о технике. – Москва: Республика, 1993. – 447 с.
10. Хаксли О. О дивный новый мир. – Москва: АСТ, 2018. – 352 с.
11. Floridi L. *The Philosophy of Information*. - Oxford: Oxford University Press, 2011.
12. Bostrom N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. - Oxford: Oxford University Press, 2014.
13. Tegmark M. *Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence*. - New York: Knopf, 2017.

14. Tegmark M. *Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence*. - New York: Knopf, 2017. - 400 s.
15. Harari Yu. N. *Homo Deus: A Brief History of Tomorrow*. - New York: Harper, 2017. - 450 s.
16. Tegmark M. *Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence*. - New York: Knopf, 2017. - 400 s.
17. Bostrom N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. - Oxford: Oxford University Press, 2014. - 368 s.